

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

**«CHIZMA GEOMETRYA DARSINI TASHKIL ETISH»**

**Mirzayeva Feruza Xoldarovna**

*Andijon viloyati Marhamat tumani.*

*22-IDUM da tasviriy san'at o'qituvchisi*

**Annotatsiya”;** Ushbu maqolada chizma geometrya fanidan darslarni tashkil etish va darslarga qo`yilgan talablar, chizma geometry fani uchun bir soatlik dars ishlanma tayyorlash haqida keng yoritilgan.

**Kalit so`zlar:** Chizma geometrya, dars, darsda o`qitish, talablar, dars ishlanma.

**Аннотация:** В данной статье подробно рассказывается об организации и требованиях к урокам по предмету начертательная геометрия, о подготовке разработки часовного урока по предмету начертательная геометрия.

**Ключевые слова:** Начертательная геометрия, урок, преподавание на уроке, требования, разработка урока.

**Annotation:** This article describes in detail the organization and requirements for lessons on the subject of descriptive geometry, the preparation of the development of an hour-long lesson on the subject of descriptive geometry.

**Keywords:** Descriptive geometry, lesson, teaching in class, requirements, lesson development.

Darsda o‘quv dasturi talablari asosida ta’lim-tarbiya uzviyigini ta’minlash, bu jarayonda o‘qitish metodi, vositalaridan samarali foydalanish orqali o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, DTS bilan me’yorlangan ta’lim mazmuni va uning tarkibiy qismlarini shakllantirish, ma’naviy-ahloqiy tarbiyalash amalga oshiriladi. O‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berish sifati va o‘qitish samaradorligi darsning tashkil etilishi, ularda o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish, boshqarish va faollashtirish masalalariga bog‘liq bo‘ladi.

Dars chizma geometrya o‘quv dasturi bilan me’yorlangan mazmunni o‘rganish maqsadida yoshi, tayyorgarlik darajasi bir xil, doimiy tarkibga ega bo‘lgano‘quvchilardan iborat guruh (sinf)larda belgilangan vaqt doirasida, qat’iy jadval asosida Chizma geometrya va chizmachilik o‘quv xonasida tashkil etiladi.

O‘rganiladigan mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda, darslar tirik tabiat burchagida, o‘quv tajriba maydonida, biologik muzeylarda tashkil etilishi ham mumkin.

Chizma geometrya o‘quv dasturida ta’lim mazmuni o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, bilim zahiralari hisobga olingan holda berilgan. Chizma geometrya o‘quv fanlarining mazmuni mantiqiy ketma-ketlikdagi alohida qismlar – boblar, mavzularga bo‘lingan. Har bir mavzu mazmunini o‘rganish darslarda amalgalash oshirganligi sababli, darslar ham muayyan sistemani tashkil etadi, bir-biri bilan mantiqiy bog‘langan bo‘ladi.

Darsda o‘qitish hamma o‘quvchilar uchun umumiy bo‘lgan o‘quv dasturi asosida tashkil etiladi, o‘qituvchi o‘rganilayotgan mavzu mazmuni, ta’limiy, tarbiyaviy

va rivojlantiruvchi maqsadlariga muvofiq, o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish, boshqarish va faollashtirishga qaratilgan pedagogik faoliyatni amalga oshiradi. Demak, o‘quvchilarning darsdagi faoliyati ularning o‘quv-bilish faoliyatini, o‘qituvchining faoliyati esa shu faoliyatni tashkil etish, boshqarish va faollashtirishga qaratilgan pedagogik faoliyat sanaladi.

Darsda o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyati, o‘qituvchining pedagogik faoliyati bilan uyg‘un tashkil etilgandagina o‘qitish maqsadlariga erishish mumkin. Har bir dars o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, aqliy rivojlanishi, shaxs sifatida tarbiyalash, atrof-muhitga ongli munosabatni tarkib toptirishga xizmat qiladi va chizma geometryani o‘qitishdan nazarda tutilgan umumiy maqsad va vazifalarning bajarilishiga o‘z hissasini qo‘sadi.

Darsning muvaffaqiyatli tashkil etilishi ko‘p jihatdan o‘qituvchining darsga qo‘yiladigan talablarni bilishi, unga amal qilishiga bog‘liq. Chizma geometrya darsini tashkil etish uchun quyida bir soatlik dars ishlanmasi tashkil etildi:

**Mavzu: Geometrik jismlar va ularning proeksiyalari.**

**Darsning maqsadi:**

**Ta’limiy maqsad:**

- o‘quvchilarga chizmachilik fani haqida tushuncha berish;
- shakllar va jismlar, texnikada ishlatalishi haqida ma’lumotlar berish;

**Tarbiyaviy maqsad.** O‘quvchilarga chizmachilik faniga oid chizma va shakllarni ko‘rsatish, ularda ko‘nikma hosil qilish , ularda tabiatdagi rang – baranglikni to‘g’ri tasvilashga o‘rgatish va tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi maqsad:** O‘quvchilarda ilmiy dalillarni tahlil va sintez qilib xulosa chiqara olish qobiliyatini rivojlantirish. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish o‘quvchilarda texnikaga bo‘lgan havas va qiziqishlarini yuksaltirish.

**Darsda**

geometrik shakllardan foydalanish

**Dars materiallari jihozlari:**

1. Xona va undagi jihozlar;
2. Shakllar va jismlarning ko‘rinishlari;
3. Chizmachilik darsligi.

**Fanlararo aloqadorligi:** Matematika va geometriya fani bilan fanlararo aloqani amalga oshirish.

**Asosiy tushuncha va atamalar:**

- Ko‘pyoqlar, Kub, Parallelepiped, Prizma;
- Tasvirning ko‘rinishlari;
- Amaliyotga tadbiqi.

**Darsning blok-chizmasi**

Darsning borishi: 1. Tashkiliy qism. O'quvchilar uchun yangi o'quv predmeti birinchi bor o'tilayotgani uchun uning ahamiyati juda kattadir. Birinchi taassurotning qanday bo'lishi, o'quvchilarning bundan keyin fanga bo'ladigan munosabatini belgilaydi. Shunga ko'ra tayyorgarlik kabinetdan boshlanadi. Kabinet devorlariga jism va shakllarning ketma-ketlikda osiladi.

Darsning mazmuni.2. Dars amaliy usulida olib boriladi. O'quvchilarga qadimdan odamlarning yashash uchun tabiatda kurashlar olib borganligi va bu borada tegishli bilimlar to'planib borilganligi aytildi. Shunday qilib, Chizmachilik faniga va rassomchilikning rivojlanganligi tushuntiriladi. Bu orada o'quvchilardan jizmalar va shakllarga oid qanday ko'nigmaga ega ekanligi , ularda nimalarni o'rganganligi so'ralishi mumkin ( tabiat mnanzaralari, matematika va geometriya fanidan turli figuraga ega jismlar yoki shakllar ko'rinishi va h. k. ). Oddiy detallarni o'rgangan o'quvchilar keyinchalik murakkab shakllar yoki jismlar ko'rinishidagi detallarni bilishi arxetektura ,yangi asarni vujudga olib kelishi aytilgach, chizmalarning sxemasi ko'rsatiladi. Masalan, Ko'pyoqlar, Kub, Parallelepiped, Prizma . Bundan ushbu detalning tasvirini o'rganish va ichki tuzulishini tasavvur qilishga imkon beradi.

Oquvchilarning har biriga namunaviy chizmalar tarqatiladi . So'ngra o'quvchilar diqqati chizmalarning qonuniyatiga qaratiladi va ichki tasvirning qanday hosil bo'lishini , qismlarga qanday ajratilishini ko'rib chishga qaratiladi. Ulardan ayrimlarining birikish sohasi o'quvchilarga o'rgatiladi bu holatni keltirilgan chizmalarda ko'rish mumkin (masalan: Ko'pyoqlar, Kub, Parallelepiped, Prizma) . Qonunlar o'z-o'zidan, qisqa muddatda yaratilmasligi, buning zaminida aniq fanlarning xisob –kitobi yotishi aytildi.Nima sababdan bu o'quv predmetini o'rganish kerak?

Atrofga qarasangiz hamma jylarda ayniqla rivojlangan davlatlarda Arxetektura va boshqa sohalarda bu borada ko'p ishlar olib borilgan. Bizning diyorimizda ham bu sohaning rivoj topib borishini birgina qurilayotgan inshootlar,ko'priklar va binolarning qurilishi misolida ko'rish mumkin. Bu sohaning yana bir muxim jixati yog'och o'makoligi ,hakaltaroshlik sohasida xam keng ma'noda ko'rish mumkin.8-sinfda chizmachilik o'rganiladigan sohalari asosan geometrik figuralar, jismlarning xolati, shakllarning o'lchamlari va sematik tasviri bu bo'yicha 18 –mavzudagi (2-3-4-5- chizmalar) ni ko'rib chiqamiz. Bu detallarning proeksiyalanishi turli burchak ostida ko'rinishini tasviri ko'rsatiladi.

**ADABIYOTLAR:**

1. Ismatullaev R. Chizma geometriya. Toshkent, 2003, -111 b.
2. Murodov Sh. Xakimov L., Odilov P., Shomuradov A.U., Jumayev M. Chizma geometriya kursi. - Toshkent.: O'qituvchi, 1988. -363 s.
3. Xorunov R. Chizma geometriya kursi. -Toshkent: O'qituvchi, 1995.- 230 b.

**5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR**

**4. I.Rahmonov, D.Yuldasheva, M.Abdurahmonova “Chizmachilik 8-sinflar uchun  
mактаб дарслиги**